

NAVOIYNING "MAHBUB-UL QULUB" ASARI HAQIDA MULOHAZALAR

*Bahodir Qobul,  
filolog, O'zJOKU katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asari haqida filologik o'rganishlar olib borilgan. Asarning lisoniy va ijtimoiy xususiyatlari yoritilgan. Muallif o'z mulohazalarini misolloar orqali ochib bergan. Maqolada tarbiya tili, ota ona tili masalalariga bahsli yondashuvlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** lison, asar, rivoyat, devon

**Аннотация:** в статье проводится филологическое исследование произведения Навои "Махбуб-ул-кулуб." Освещены языковые и социальные особенности произведения. Автор раскрыл свои рассуждения на примерах. В статье представлены дискуссионные подходы к вопросам языка воспитания и родного языка.

**Ключевые слова:** язык, произведение, предание, диван

**Abstract:** This article provides a philological study of Navoi's work "Mahbub-ul-qulub." The linguistic and social features of the work are highlighted. The author explained his reasoning using examples. The article presents controversial approaches to the issues of the language of upbringing and the mother tongue.

**Keywords:** language, work, tradition, divan

Avvalo o'kuvchiga tokchalardan kitob axtarib, varaklab, vaqtni o'tkazmaslik, xayolini kochirmaslik niyatida, sodda elimizning o'zidek sodda va tugri xayoliga mos yo'sinda ba'zi tarixiy sanalarni Hazrat Alisher Navoiy (1441-1501). Hazrat Lev Tolstoy (1828-1910) tiriklik atalmish to'qayda O'zini tanishni lozim topdik. Xuddi istaganlarga yo'lchiroq bo'lganligini qayd etishni shuningdek, Navoiy hazratlari 26 035 ta, Pushkin 21 197 ta, Shekspir salkam 20 000 ta, ispan dahosi Servantes 18000 taga yaqin so'z ishlatganligini bilib qo'yish ham o'zini Turkdan to'ragan deb biluvchi o'tli yuraklar uchun kuvvat, foydadan xoli emas deb hisobladik. O'tmish, davlatchilik, siyosat, til bilish ilmidan ozgina xabari borlar iqrordark, TIL - TARBIYA va TA'LIM tiliga bo'linadi. Tarbiya tili bitta bo'ladi. Ta'lim tili esa avvalo ehtiyojga, kasbga, talabga, korin va nafsga yarasha: siyosatga kuni kolganda esa ixtiyoriy-majburiy bo'lishiyam bor gap. Yana sodda o'zbekning sodda tilida aytganda, "Jon tili bo'lak, non tili boshka".

TARBIYA TILI deyilgani JON TILI deyilganidir. O'rischada "Rodnoy yazyk" deyilgan ham o'zbekchaga "Jon tili" deb o'girilmog'i lozim. Uni bizga "Ona tili" deb o'girib berishganidek ishlatilaveradi, shunday ekan deb ketilaveradi. Tillarning birontasi ona nomi bilan emas, OTA nomi bilan atalishini ilg'ashga vaqtida qo'yilgan to'siqlar o'z ishini qilaveradi. Turk, o'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz. Qaysi biri ayolning oti? Bilgan biladiki, aslida bu tillar OTABIR tillardir, onabir emas. So'nggi yillarda bir hisobga non topishning qattikligidan, bir hisobga "hunar"larning ko'payishidan jon tili non tiliga aylanishi kuchaydi. Xalqaro tarjimonlar uyushmasi (FIT)ning 2011-yil San-Fransiskoda o'tgan XIX kongressi talablaridan bo'lmish "Tarjima faqat ota tilda amalga oshirilishi lozimligi, ya'ni ingliz tiliga ingliz, ...yapon tiliga yapon tilida o'ylovchi, ijod qiluvchigina tarjima qilishi talab etilishi" haqida dars berilgan, qarorga kelingan. Qaysi tilda fikr yuritsa, o'ylasa

sayqal bera olishi ta'kidlangan. Qo'ldan kelguncha ushbu qoidalarga amal qilindi. Baho bermoq Sizdan, aziz o'quvchim. Ustoz ko'rmanagan esa ne bir nag'malarga yo'rg'alashini yaxshilikka mustar va viqorli elimiz esini tanigan kunlaridayoq bildirib qo'ygan. Jilvali arab lisoni va ko'ngillarni "Ko'hi Qof" etuvchi fors zaboni izzati koshimiz ustida. Hazratning hasrat ila aytgan, zamonlar oralab eshutilib turgan demishlari quloqlar ostida salmoq soladi. "...Mushfik o'jar Navoiy joniga voy!" Xalqaro tashkilotning bu yo'rig'i, talabi biz o'zbek o'giruvchilariga, tarjimonlariga ham qo'llanma bo'lishi shart. Tarjima ag'darmok, teskari qilmoq demakdir. Tarjimachilikdek millat va yurt ori-nomusi, o'tmishi, buguni va kelajagi, bundan keyingi yurish-turishiga, uyalmay aytish mumkinki, joniga, tirikligiga bevosita bog'liq ishni qo'lga olishimiz kerak. Birov kelib qilib bergan "osh"larni hovlining chekkasida, oyoq uchida ko'rib, oyoq uchida bir cho'kib to'rt tomonga jalanglagan chog'imiz, sigindiday yutinganimiz yetar. O'zbek tilida fikr yuritish tugul, bu tilda "nonni nana" deyolmaydigan "tarjimon"larning kattadan katta yuzsizlik ila Alisher Navoiy asarlarini boshqa tilga (aytaylik, ingliz, rus tiliga) o'girayotganlarini ko'rib millat tiliga hurmatsizlik va millat fikr oqimini boshqa o'zanlarga, o'zligidan yiroq, sovuqlikka yetaklayotganini ko'rib, yurak orqaga tortib ketadi. Boshqa tillardagi asarlarni o'zbek tiliga o'girish ahvoli ham bundan avli emas. Boshqa tillardan tarjima qilish ortidan tilimizga yetkazilayotgan ozor va zararlarni hech bir narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

"Mahbub ul-qulub" asarida odil sultonlar haqida bir qancha rivoyatlar bor. Odilu oqil podshoh Allohning bandalari boshidagi soyadir. Xalifalik, O'rinbosarlik mulki, davlati aning farmonida "Inna jouilun fil arz xalifatun" "Men yerda (Odamni) xalifa qilmoqchiman" ("Baqara" surasi. 30-oyat) deya uni ulug'laydi. Bu kim odil podshoh baland martabasi ta'rifidan buyukroq erur. "Vuidtu fi-zamonissulton ul-odil" - "Men odil sulton zamonida tug'ildim" (Hadis) andan xabar berur. Ulki aning zoti bila shuhratlangandir. Xojai kavkayin Ikki dunyo egasi demakdir (Muhammad payg'ambar sallalohu alayhi vassallam) debdilarkim "Adlun soatun xayrun min ibodatis-saqalayin" - "Bir soatlik adolat, insonlaru jinlarning ibodatidan yaxshiroq" (Hadis.) Odil podshoh Haq taolodan xaloyiqqa rahmatdur va mamlakatga tinchlik, turmush kengchiligi, omonlikka sabab, asosdir. Quyosh bilan ko'klam bulutidek karo tufrog'din gullar ochar va mamlakat ahli boshiga oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning yumshoqlik va madorasidan, quvvatlashidan, kelishuvidan osuda, zolimlar va devon boshliqlari, vazirlar, mirshab va kattikkullilar aning siyosati tig'idan to'zg'igan, holsizlangan, ezilgan. Haybatidan ko'yu ko'zi buri xavfidan emin va siyosatidan musofir ko'ngli qaroqchi vahmidan tinch. Martabasidan har maktabda go'daklar shodlik qiychuvi va muhofazatidan zaiflar hammomida alarning shovqin-suroni, haybatidan yo'llar qaroqchidan holi, tozalangan, qo'llar to'la ulus moli va zabtidan amaldorlar kalami sinuk, sindirilgan va sitam ko'rsatuvchilar alami yikuk, yiqitilgan. Jiddidan, g'ayratidan masjidlar jamoat aholidan to'lgan, madrasalar bahs va tortishishi, janjal to'dasida to'polon. Adolati tig'idan o'g'ri ilgi, qo'li el molidan uzilgan, kutoh, kalta, intiqomi, jazolashi qo'rquvidan keskin tarik holi adam cho'lida vayron, buzuk. Tunning, kechaning ko'pi do'konlarda savdo uchun sham va avbosh, bebosh, daydi ko'cha kezishidan ko'ngillari jam, xotirjam. Shomdan to sahar xonaqohlar eshigi ochuq va xilvatlar ibodat nuridan yorug. Shaharda qo'ylar posboni ul, yozida, dashtda qo'ylar chuponi ul. Xalqqa yer va bog' undan ma'mur, obod va

askarga xazina va tinchlik, xotirjamlik andin farovon. Andin kechalar turklarning xotinlari ishi urushtak va yosh bolalari ok so'ngak o'yinini o'ynash. Kampirlar charx uni maddi urchuk tovushi hovuri bilan aning duosiga qo'shilishgan va kanizaklar momuq sabamo kuni, paxta savamoq tovushi bilan aning olqishini kuylovchi. Fuqaro ishi anga ham duo va ham nozlanish, uning odati, xislati fuqaroga ham saxiylik va ham siylash. Va ochlar yeguligi, hadya, ehson va atosi xonidan (xarajati yonidan), yalang'ochlar libosi shaxsiy xazina va ehsonidan. Mulk bog'in ma'mur qilurg'a buluti yomg'irli mamlakat ahli ko'zin yoruturga mehri jahonni qizdiruvchi. O'zga mulkning, davlatlarning xalqlari va o'z xalqi aning orzusida va yana mamlakat mazlumlari, kuni ogirlari uning adlu duosini tilashda. Yaxshi otiga olimlar ishi risolalar tartibi va yaxshi sifatiga shoirlar vazifasi qasidalar tarkibi, qo'shiqchilar mashg'uloti shukri va maqtash uchun qo'shiq tuzmak va musanniflar, mualliflar maqoli duosida ohangida nag'ma ko'rguzmak. Xalq roziligidan Haq roziligiga tolib, roziligini istovchi va fuqarolar arzi dodini so'rarda surug' kuni - Xudoning oldida surov kuni vahmi, qo'rqinchi ko'ngliga g'olib.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 662 б.
3. Навоий А. Махбуб-ул-қулуб. – Тошкент: Фан, 1997. – 281 б.
4. Навоий замондошлар хотирасида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985. – 123 б.
5. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – 402 б.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 702 б.
7. <http://kitob.uz>
8. <http://www.e-adabiyot.uz>
9. <http://ziyoNet.uz>